

ANEMIYANING TAVSIFI, TURLARI, DIAGNOSTIKASI VA DAVOLANISHI

Abdullo Akramov Ahmad o‘g‘li

abdullohakramov313@gmail.com

SamDTu Pediatriya fakulteti 3-kurs talabasi

Murtozoyeva Ug'iloy Saydulla qizi

ogiloymurtazoyava@gmail.com

SamDTu Pediatriya fakulteti 4-kurs talabasi

Isaqulov Ulug‘bek Alisher o‘g‘li

ulugbekalisherovich121102@gmail.com

SamDTu Pediatriya fakulteti 3-kurs talabasi

Raxmatov Jasurbek Xurshid o‘g‘li

iphonejasur721@icloud.com

SamDTu Pediatriya fakulteti 3-kurs talabasi

Bekmamatov Eldor Muzaffar o‘g‘li

bekmamatoveldor@gmail.com

SamDTu Pediatriya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Anemiya yoki **kamqonlik** - qonning birligida hajmida **gemoglobinning** past kontsentratsiyasi bilan xarakterlanadi va shu bilan birga, inson tanasida, qizil qon hujayralari (**eritrotsit**) sonining kamayishi bilan bog’liqdir. Anemiya holati ikkinchi darajali bo‘lib, turli kasalliklarning belgisi hisoblanadi. Ko‘p kasalliklar, yuqumli va parazitar etiologiyali va saraton oldi holatlari va saraton mavjudligi kamqonlik bilan birga kechadi. Ushbu maqolada, anemianing kelib chiqishi, turlari, tashxislash va davolash usullari haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

Kalit so’zlar: Anemiya, gemoglobin darajasi, davolanish, diagnostika, qon tahlili, kasalliklar, anemiya oqibatlari.

Anemiya yoki kamqonlik atamasi ostida qon hajmining birligida qizil qon pigmentining (gemoglobin) yoki qizil qon tanachalarining (eritrositlar) yetishmasligi tushuniladi. Anemiya quyidagi sabablarga ega bo‘lishi mumkin: o‘tkir yoki surunkali qon yo‘qotish (yara, operasiya, oshqozon-ichak sohasida qon yo‘qotish); qon hujayralarining tez nobud bo‘lishi yoki eritrositlar hayotining davomiyligining qisqarishi; bir xil, balanslashtirilmagan oziqlanish, qon uchun foydali bo‘lgan elementlarning tanqisligi (oqsil, temir, foliy kislotasi, B12 vitamini, mis); ichakda muhim elementlarning so‘rilishining buzilishi (surunkali oshqozon-ichak kasalliklari tufayli). Eng keng tarqalgan anemianing turidan biri bu — temir moddasining

tanqisligidir. Uning oziq-ovqatlardagi yetishmovchiligi uning organizmdagi defisitga olib keladi.

Qon tizimi yetarli darajada temir moddasini qabul qilmasa, u o‘z navbatida gemoglobinning yetarli miqdorini ham ishlab chiqara olmaydi. Oqibatda esa eritrositlar unga yetarli darajada qoniqmasdan, organizm yetarli miqdorda kislородга erishmaydi. Bolalarda anemiya toliqish, rangsizlik, ishtahaning yo‘qolishi, bosh og‘riqlari, teri quruqligi, tirnoq va sochlarning sinuvchanligi, og‘iz burchaklaridagi yoriqlar va turli yuqumli kasalliklarga tez chalinishlari bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Kasallikning og‘ir shakllarida qiyin nafas olish, bosh aylanish, tez yurak urishi, shilliq qatlamlarning o‘zgarishi (silliq malina rangidagi til, ta’m, hid sezishning o‘zgarishi, yutishning murakkablashishi), shu bilan birga jigar va taloqning shishishi ham kuzatiladi.

Anemiya dunyo aholisi orasida eng keng tarqalgan patologik holatlardan biri hisoblanadi. Anemiya turlari orasida, kamqonlik rivojlanishi sabablari bo‘yicha ularni tasniflashda bir nechta asosiy shartlar ajratiladi:

- Temir tanqisligi;
- Gemolitik anemiya;
- Aplastik anemiya;
- Sideroblastik anemiya;
- B12 vitamini yetishmovchiligi natijasida B12-tanqislik anemiyasi;
- Postgemorragik anemiya;
- O’roqsimon hujayrali anemiya va boshqa shakllar.

O’smirlik davrida kamqonlik xavfi ayniqsa qiz bolalarda hayz siklining boshlanishi bilan ortadi, muntazam qon yo‘qotishlar o‘z tasirini ko’rsatmay qolmaydi. O’smir qizlarda kamqonlik rivojlanishiga undaydigan ikkinchi omil, ularning tashqi ko’rinishi haqida qayg’urishlari va qomatni to’g’irlash uchun turli xil parhezlar va ovqat ratsioniga turli xil cheklovlar kiritishi bilan bog’liq. Bu davrda tez o’sib-rivojlanish, sport bilan qizg’in shug’ullanish, to’yib ovqat yemaslik har ikki jins o’smirlarga ta’sir qiladi. O’smirlik davridagi anemiya belgilariga ko’z sklerasinинг ko’kimtirligi, tirnoq shaklining o‘zgarishlari, ovqat hazm qilish tizimining buzilish, ta’m va hid o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi.

Mutaxassislar tomonidan o’tkazilgan tadqiqotga ko’ra, laktatsion anemiya ko’pincha kasallikning og‘ir bosqichlarida tashxis qilinadi. Kamqonlikning rivojlanishi tug’ruq jarayonidagi qon yo‘qotishlar va gipoallergik ovqat ratsioni tufayli yuz beradi. O’z-o’zidan ko’krak suti ishlab chiqarish kamqonlikka sabab

bo'lmaydi, balki ovqat ratsionidan ba'zi muhim mahsulotlarni chiqarib tashlash, masalan dukkaklilar (bola qorni damlanmasligi uchun), go'sht va sut mahsulotlari (bolada allergik reaksiyalarni oldini olish) kamqonlik rivojlanishi ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

Anemiya qon birligida gemoglobin va qizil qon hujayralari (eritrositlar) kontsentratsiyasi kamayishi bilan ifodalanadi. Eritrotsitlarning asosiy vazifasi — to'qimalarda gaz almashinuvi, kislород va karbonat angidrid, shuningdek oziq moddalar va metabolik mahsulotlar tashuvidir. Eritrosit o'zida gemoglobin degan oqsil saqlaydi, u eritrositga va umuman qonga qizil rang berib turadi. Gemoglobin tarkibida temir mikroelementi mavjud, shuning uchun temirning yetishmasligi kamqonlikka olib kelishi mumkin. Anemiya rivojlanishida uchta asosiy omil mavjud:

- O'tkir yoki surunkali qon ketish;
- Gemoliz, eritrotsitlarning parchalanishi;
- Suyak iligi tomonidan eritrotsitlar ishlab chiqarilishining kamayishi.

Tug'ruqdan keyingi kamqonlikning kech tashxislanishi sababi, onalar o'z salomatligiga e'tibor bermasdan, ko'proq bolaga e'tiborli bo'lishidir, ayniqsa, yosh onalar. Bolaning salomatligi onaning o'z salomatligidan ko'ra ko'proq o'ylantiradi, kamqonlikning alomatlari — bosh aylanishi, charchoq, uyquchanlik, diqqatning yo'qolishi, terining rangi xiralashgani — ko'pincha chaqaloqqa qarash bilan bog'liq charchoq tufayli yuzaga kelgan deb qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, kasallikning eng keng tarqalgan shakli — temir tanqisligi anemiyasini xavf mavjud bo'lgan davrlarida temir elementi mavjud mahsulotlari miqdorini oshirish bilan oldini olish mumkin. Shuningdek ovqat ratsionida vitamin C, kobalamin (vitamin B 12), foliy kislotasi mavjudligi muhim omil hisoblanadi. Agar kishi kamqonlik rivojlanishi ehtimoli yuqori bo'lganlar guruhida bo'lsa (yuqorida keltirilgan), muntazam tibbiy ko'rikdan o'tib turish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Po'latova T.P., Xolmatov X.X. Farmakognoziya amaliyoti - Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.-360 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. —O'zbekiston NMIU, 2017. - 485 b.

3. Trease and Evans Pharmacognosy. International Edition: Edinburg, London, New York, Philadelphia, Sidney, Toronto (16th edition). - London (UK): Saunders Elsevier Limited, 2009. 408 bet.

4. Gafurov, B. Z. (2021). Medical terminology in advertising text. Scientific reports of Bukhara State University, 5(3), 30-40.p

5. Gafurov, B. Z. (2021). Study of advertising texts in Russian on the topic of medical terminology. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT).-Indonesia, 26(1), 586-590.p